O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2025-yil 18-oktabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BMT BOSH ASSAMBLEYASINING 72-SESSIYASIDA SO‘ZLAGAN NUTQIDAGI EVFEMIZMLARNING MORFOLOGIK TAHLILI

MORPHOLOGICAL ANALYSIS OF EUPHEMISMS IN THE SPEECH DELIVERED BY THE PRESIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV AT THE 72ND SESSION OF THE UNITED NATIONS GENERAL ASSEMBLY

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/JGTB4750

Jabborova Aziza Jobirovna
Tayanch doktorant
Namangan davlat universiteti
azizajabborova14@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida qo‘llanilgan evfemizmlarning morfologik tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, siyosiy diskursda evfemizmlar og‘ir yoki noxush mazmunlarni jilolash, ijtimoiy muammolarni yumshoqroq shaklda ifodalash, shuningdek, siyosiy qarash va pozitsiyalarni xalqaro auditoriya oldida legitimlashtirish uchun keng qo‘llanadi. Nutq matnidan tanlab olingan evfemistik birliklar lingvistik metodlar asosida o‘rganilib, ularning ot, fe’l va sifat kategoriyalaridagi shakllanish xususiyatlari ko‘rsatib berildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Mirziyoyev nutqida evfemizmlar nafaqat ijobiy konnotatsiyani kuchaytiruvchi vosita sifatida, balki xalqaro auditoriyaga mo‘ljallangan diplomatik ifoda shakli sifatida ham xizmat qilgan. Shuningdek, evfemizmlar orqali O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida olib borilgan islohotlar yumshoqroq va ijobiyroq tarzda taqdim etilgan. Maqolada evfemizmlarning morfologik jihatdan qanday tuzilishi va siyosiy diskursdagi funksional yukini ochib berish orqali ularning tilshunoslikdagi o‘rni ham aniqlangan. Ushbu yondashuv siyosiy lingvistika va evfemizmshunoslikning rivojiga hissa qo‘shadi.*

Kalit so‘zlar: *evfemizm, siyosiy diskurs, morfologik tahlil, siyosiy nutq, Shavkat Mirziyoyev, BMT Bosh Assambleyasi, xalqaro auditoriya, diplomatik til, ijobiy konnotatsiya.*

Annotation. *This article is dedicated to the morphological analysis of euphemisms used in the speech delivered by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, at the 72nd session of the United Nations General Assembly. The relevance of the research lies in the fact that in political discourse, euphemisms are widely used to soften harsh or unpleasant meanings, to present social issues in a milder form, and to legitimize political views and positions before an international audience. Euphemistic units selected from the speech text were studied using linguistic methods, and their formation characteristics in the*

categories of nouns, verbs, and adjectives were demonstrated. The results of the analysis showed that in Mirziyoyev’s speech, euphemisms served not only as a means to enhance positive connotations but also as a form of diplomatic expression intended for an international audience. Furthermore, the reforms carried out in Uzbekistan’s socio-political life were presented in a softer and more positive manner through euphemisms. The article identifies the linguistic role of euphemisms by revealing their morphological structure and functional load in political discourse. This approach contributes to the development of political linguistics and euphemism studies.

Keywords: *euphemism, political discourse, morphological analysis, political speech, Shavkat Mirziyoyev, UN General Assembly, international audience, diplomatic language, positive connotation.*

“Til xulqini uning ijtimoiy asosidan ajratib o‘rganib bo‘lmaydi, chunki uning ma’nosi kim gapirayotgani, kimga murojaat qilinayotgani, nutq shakli, maqsadi, va muloqot yuz berayotgan vaziyat kabi tashqi ijtimoiy va madaniy omillar bilan belgilanadi.” [Giyoto va boshq., 2020: 166].Ijtimoiy-siyosiy matnlardan farqli ravishda, ommaviy nutqlar “ijtimoiy kontekst omillari” bilan ajralib turadi, ya’ni siyosatchi nutqining muvaffaqiyati nafaqat uning mazmuni, balki odamlar bilan og‘zaki muloqotning o‘zi–muloqotning maqsadi, vaqti, joyi hamda auditoriyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ham bog‘liqdir. “Zamonaviy ritorikada uslubiy me’yor ko‘pincha xabarning ijtimoiy-siyosiy maqsadlari bilan uyg‘unlashadi.” [Zeynalova va Allahverdiyeva, 2017: 48).

Siyosatchilar nutqlarini tahlil qilgan holda, ularning maqsad va motivlarini hisobga olgan tarzda aytish mumkinki, ularning asosiy “quroli” bu- til, ya’ni so‘zdir. So‘zlar siyosiy kommunikatsiyada asosiy vazifani-manipulyatsiyani bajaradi. Xalq tomonidan qadrlanadigan siyosatchilar, yetakchilar nutqida nozik masalalarga (irq, yosh, aholining muayyan qatlamlarining past turmush darajasi) yoki harbiy yo‘nalishdagi mavzularga (qurollar, terrorchilik harakatlari, migratsiya, harbiy harakatlar) oid leksik birliklarni ishlatishda alohida ehtiyotkorlik talab etiladi.

Siyosiy yetakchilar o‘z nutqlarida barqarorlik, farovonlik va tinchlik haqidagi va’dalar orqali xalqni ruhlantirar ekan, ular ko‘pincha salbiy holat va voqealarni yashirish yoki yumshatish orqali haqiqatni “bezatadilar”. Bu holat siyosiy nutqlarda ko‘plab niqoblangan (yashirin) tushunchalar mavjudligini ko‘rsatadi-siyosatchilar bu uslubga zarurat tufayli murojaat qiladilar[Allahverdiyeva va boshq., 2021:742]. Bu uslub evfemiya hodisasi deb nomlanadi. Ya'ni nutqdagi salbiy ma ‘noga ega bo ‘lgan birliklarni ijtimoiy jihatdan maqbul ifodalar bilan alishtirishdir. Evfemizm lingvistik jihatdan noxush, keskin yoki salbiy ma’noga ega so‘z yoki iboralarni yumshoqroq, ijobiyroq va ijtimoiy qabul qilinadigan ifodalar bilan almashtirish hodisasi sifatida izohlanadi [Allan & Burridge, 1991:14]. Siyosiy diskursda esa evfemizmlar og‘ir muammolarni jilolash, salbiy voqealarni yumshatish va ijtimoiy ongda ijobiy taassurot uyg‘otish vazifasini

bajaradi [Chilton, 2004:33]. O‘zbekiston siyosiy nutqida ham evfemizmlar muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda Prezident nutqlarida, parlament va hukumat yig‘ilishlarida, siyosiy chiqishlarda ijtimoiy-siyosiy muammolar, iqtisodiy islohotlar va huquqiy jarayonlar evfemistik birliklar orqali yumshoqroq tarzda ifodalanmoqda. Bunday til birliklari nafaqat semantik, balki morfologik jihatdan ham tahlil qilinishi lozim, chunki ularning shakllanishida ot, fe’l, sifat kabi so‘z turkumlarining roli muhimdir.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi o‘z mazmuni va ifoda uslubi bilan xalqaro hamjamiyatda keng rezonans uyg‘otgan. Mazkur nutqda ko‘plab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar evfemistik birliklar orqali bayon qilingan. Ushbu nutq evfemizmlarni morfologik jihatdan o‘rganish uchun boy material manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois ushbu maqolada Shavkat Mirziyoyevning mazkur nutqidan tanlangan evfemistik birliklar tahlil qilinib, ularning morfologik shakllanish xususiyatlari ochib beriladi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini siyosiy lingvistika va evfemizmshunoslik bo‘yicha zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etadi. Maqolada Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi asosiy tahlil ob’ekti sifatida tanlab olindi. Ushbu nutq o‘zining xalqaro miqyosdagi ahamiyati, unda ko‘tarilgan global muammolar hamda evfemistik birliklarning faol qo‘llanilishi bilan tadqiqot uchun boy material hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Deskriptiv-lingvistik tahlil – nutq matnidan ajratib olingan evfemistik birliklarning shakl va mazmun jihatdan umumiy tavsifi berildi.

2. Kontekstual tahlil – evfemizmlar qanday kontekstdagi siyosiy, ijtimoiy va diplomatik vaziyatda qo‘llangani aniqlab chiqildi.

3. Morfologik tahlil – evfemizmlarning qaysi so‘z turkumlari (ot, fe’l, sifat va h.k.) orqali ifodalangani, ularning shakllanish mexanizmi va grammatik imkoniyatlari ochib berildi.

4. Komponent tahlil – evfemistik birliklarning asosiy semantik komponentlari aniqlanib, ularning ma’no jilolash yoki yumshatish funksiyasi ko‘rsatildi.

Tadqiqotning manba bazasi sifatida Prezidentning rasmiy veb-saytida e’lon qilingan nutq matni olindi. Matndan tanlab olingan evfemizmlar alohida segmentlar sifatida ajratildi va ularning morfologik xususiyatlari lingvistik metodlar asosida tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv orqali evfemizmlarning siyosiy nutqda qanday vazifalarni bajarishi, ular yordamida siyosiy mazmunning qanday jilolanishi va ijtimoiy ongga qanchalik ta’sir etishi aniqlandi.

Tadqiqot obyekti sifatida Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi tahlil qilindi. Ushbu nutqda xalqaro auditoriyaga qaratilgan siyosiy xabarlar evfemistik vositalar orqali jilolanib, mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar yumshoq shaklda taqdim etilgan. Quyida ayrim misollar va ularning tahlili keltiriladi.

1.“Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi.”

Bu jumlada “ta’sirchan choralar ko‘rildi” iborasi evfemistik xarakterga ega bo‘lib, keskin nazorat va jazo choralari haqida ochiq aytilmaydi. Morfologik jihatdan ot (choralar) va sifat (ta’sirchan) birikmasidan tashkil topgan. Evfemizm vazifasi – mavjud muammoni yumshoqroq shaklda ifodalash.

2.“Odamlarning erkin harakat qilishini cheklaydigan xorijga chiqish vizalari singari umrini mutlaqo o‘tab bo‘lgan o‘tmish qoldiqlari bekor qilindi.”

Bu yerda “umrini mutlaqo o‘tab bo‘lgan o‘tmish qoldiqlari” iborasi repressiv tizim qoldiqlarini bevosita tilga olmay, ularni tarixiy jarayon sifatida ko‘rsatadi. Morfologik tarkibi: ot+ot (o‘tmish qoldiqlari) va fe’l sifatdosh (o‘tab bo‘lgan). Evfemizm yordamida tanqidiy ohang ijobiy tusga o‘zgartiriladi.

3.“Ekstremizm g‘oyalari ta’siriga tushib qolgan, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan fuqarolar ijtimoiy reabilitatsiya qilinmoqda, ularni sog‘lom hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.”

Bu jumlada “to‘g‘ri yo‘ldan adashgan fuqarolar” ifodasi “ekstremist” yoki “jinoyatchi” kabi keskin so‘zlar o‘rnini egallaydi. Morfologik jihatdan fe’l sifatdosh (adashgan) va ot (fuqarolar)dan tuzilgan. Evfemizm vazifasi – ayblash emas, balki tuzatish va imkoniyat berish g‘oyasini ilgari surishdir.

4.“Mamlakatimizda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyatining roli ortib bormoqda, sud organlarining chinakam mustaqilligi ta’minlanmoqda.”

“Fuqarolik jamiyatining roli ortib bormoqda” va “chinakam mustaqilligi ta’minlanmoqda” iboralari mavjud kamchiliklarni yashirib, jarayonning ijobiy rivojlanishini ta’kidlaydi. Morfologik tarkibi: ot (rol, mustaqillik), sifat (chinakam) va fe’l (ta’minlanmoqda). Evfemizm vazifasi – siyosiy jarayonlarni ijobiy yoritish.

5. “O‘zbekiston shu oyning boshidan milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to‘liq o‘tdi. Bu borada aholi uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni yumshatish bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘rildi.”

“Salbiy oqibatlarni yumshatish” iborasi valyuta islohoti oqibatida yuzaga keladigan iqtisodiy qiyinchiliklarni bevosita aytmasdan, yumshoq tarzda ifodalaydi. Morfologik jihatdan sifat (salbiy), ot (oqibatlar) va fe’l (yumshatish) birikmasidan tashkil topgan. Evfemizm vazifasi – xavfni yashirish va auditoriyani ijobiy kayfiyatda ushlab turish.

6. “Mamlakatimizda ilk bor tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Ombudsman instituti joriy etildi. Biznes sohasidagi soliqlar sezilarli ravishda qisqartirildi, kredit olish imkoniyatlari kengaytirildi.”

Bu jumlada “sezilarli ravishda qisqartirildi” iborasi soliqlarning og‘irligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tan olmaydi, balki islohotni ijobiy jarayon sifatida ko‘rsatadi. Morfologik jihatdan ravish (sezilarli ravishda) va fe’l (qisqartirildi)dan iborat. Evfemizm vazifasi – salbiylikni yashirish orqali ijobiy imijni ta’minlash.

Morfologik jihatdan evfemizmlar quyidagi shakllarda qo‘llangan:

a) otlar: *choralar, oqibatlar, qoldiqlar*;
b) sifatlar: *ta’sirchan, chinakam, salbiy*;

c) fe’llar va fe’l sifatdoshlari: *adashgan, ta’minlanmoqda, ko‘rildi*;
d) ravishlar: *sezilarli ravishda*.

Evfemizmlar semantik jihatdan salbiy holatni yumshatish, pozitiv konnotatsiya berish va auditoriyani ijobiy kayfiyatda ushlab turish funksiyasini bajargan. Ularning qo‘llanishi siyosiy diskursning ohangini yumshoq, muvozanatli va diplomatik holatda ushlab turadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi evfemizmlarning siyosiy diskursdagi strategik va kommunikativ ahamiyatini yorqin namoyon etadi. Nutqda qo‘llangan evfemistik birliklar mamlakatdagi muhim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni ochiq aytmasdan, diplomatik va yumshoq ohangda ifodalashga xizmat qiladi. Morfologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, evfemizmlar ot, sifat, fe’l, ravish hamda fe’l sifatdosh shakllarida qo‘llanib, ularning aksariyati ijobiy ma’noga ega bo‘lgan ifodalar orqali salbiy mazmunni yumshatadi. Bunday yondashuv siyosiy nutqning xalqaro auditoriyada ijobiy qabul qilinishini ta’minlaydi, hamda mamlakatning ijobiy imijini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, evfemizmlar nutqda quyidagi kommunikativ vazifalarni bajaradi: muammolarni yumshatib ifodalash, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ijobiy yoritish, xalqaro miqyosda mamlakat obro‘sini mustahkamlash va auditoriyada ishonch, optimizm hamda hamkorlik kayfiyatini uyg‘otish. Shu jihatdan, evfemizmlar o‘zbek siyosiy diskursida til vositalarining strategik ahamiyatini ko‘rsatadigan muhim lingvistik hodisa sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allahverdiyeva, A., Budaqova, A., Piriyeva, H., Eyyubova, A., Abbasova, M. Euphemisms and dysphemisms as language means implementing rhetorical strategies in political discourse. Journal of Language and Linguistic Studies, 2021. 17(2), 741-754.
2. Allan, K., & Burridge, K. Euphemism and dysphemism: Language used as shield and weapon. Oxford University Press, 1991.
3. Chilton, P. Analysing political discourse: Theory and practice. Routledge, 2004.
4. Giyoto G., Novianni A., Elen I., & Luthfie A.P. How does “to what gender and status one talks” govern the speaker’s strategy in keeping on their conversation? Journal of Language and Linguistic Studies, 2020.
5. Mirziyoyev, Sh. *Speech at the 72nd Session of the United Nations General Assembly.* Official Website of the President of Uzbekistan. https://president.uz/uz/lists/view/1062, 2017.
6. Zeynalova S.S. & Allahverdiyeva A.M. Introduction to Rhetoric. Baku-Mutarjim, 2017.

MUNDARIJA

Sirojiddinov Shuhrat	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
Ashirboyev Samixon	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
Juraqobilova Xamida	She’riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta’siri	17
Mustafayev Fizuli	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqinda	24
Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
Turdiboyev Tohir	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
Abjalova Manzura	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba’zi masalalar	42
Sheronov Boyirboy	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
Madjidova Dilorom	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
Tolipova Dildora	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
Elova Dilrabo	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
Abdullayev Jumanazar	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
Israilova Saodat	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
Kasimova Ziyoda	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
Baxodirova Shaxlo	Lakuna va realiya munosabati	92

Hakimov Dilshod	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
Allaquliyeva Qunduz	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
Isoqulova Qunduz	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
Ismayilli Ayshen	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlər xülasə	122
Davronova Zarnigor	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
Muzaffarova Zarrina	Metonimiyaning konseptual modellari	136
Yusupova Aziza	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
Mamarasulova Maftuna	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
Abdurasulova Dilnoza	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
Soqiyeva Shirin	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
Abruyeva Zaxro	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
Bovmanova Bashorat	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
Jumaniyozova Charos	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
Xayrullayeva Ra’no	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
Tursunova Sojidaxon	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177

Utegenova O‘g‘iloy	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
Maxmudova Matluba	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
Xolmamatova Sarvinozxon	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	191
Turg‘unboyeva Dilnoza	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
O‘ralova Nargiza	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
Jabborova Aziza	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
Odilova Dilobar	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
Nazarov Qobilbek	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
Mullaboyeva Shirin	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
G‘aybullayev Erkinjon	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
Oripova Mavluda	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
Otaxonova Sohiba	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
Shodmonaliyeva Yulduz	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
Sobirova Maftuna	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
Umarova Shahzoda	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
Turg‘unova Maftuna	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
Muratova Nafisa	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274

	vositalarning o‘rni	
Murotov Hamro	Reklama matnlarining tasnifi	280
Normuminov Laziz	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
Xolmanova Zulxumor	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
Qurbonova Munavvara	Ontolingvistika va pragmalingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
Ruzibayeva Nigoraxon	Psychological needs in the language classroom	303
Abdurahmonova Muqaddas	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
Umurzoqova Marhabo	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
Abjalova Manzura	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
Ruzmetova Novval	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
G‘ulomova Nargiza	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
Dedaxanova Muazzam	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
Shamsiyeva Manzura	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
Xudaykulova Shaxnoza	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarning aksiolingvistik integratsiyasi	353
Ibragimova Sayyora	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
Tilyabayev Kamil	Благодарные: из эмоционального опыта	361

	изучения узбекского языка как второго	
Alimardanov Elyor	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
Bozorova Sabohat	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
Abduvoxidova Mavzuna	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
Mamadayupova Vasila	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
Azizova Feruza	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	385
Abdullayeva Roxila	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
Yusupova Shahzoda	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
Mamirova Xayriniso	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibrid modellari	398
Nabiyeva Parvina	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
O‘rinova Zarifa	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
Rayimjonova Matluba	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
Turobova Nargiza	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
Abdullajonova Madina	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
Pulatova Umriniso	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
Imomova Ismigul	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
Arolova Nafisa	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
Tursunboyeva Fayiza	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443

Amrullayeva Mohinur	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
Mirnosirova Dilbar	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
Aminova Zilola	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
Muratova Ademi	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
Umurzakova Zuxraxon	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
Maxmudjonova Nargizaxon	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa…	477
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
Mirzodjanova Malika	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
Komilova Gavharoy	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
Pulatova Zamira	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
Moldokulova Elina	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
Yo‘ldoshxonov Javohirbek	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
Abduqodirova Zebo	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509

Otamirzayeva Sug‘diyona	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
Sayfiyeva Komila	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
Madjidova Maftuna	Лингвосоматические единицы которие характерные для арабской культуры	529
Xasanova Sohibjamol	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
Lafasova Mavjuda	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539
Olimova Mushtariybonu	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
Akalin Ahmet	*Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu*	549
Rahmonqulov Abdunazar	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
Xakimova Mavzunadjon	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
Musurmankulova Shaxribon	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
Xodjayeva Mashhura	Влияние глабализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
Erkaboyeva Havojon	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581

Axmedova Niluzar	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
Seyhan Tanju	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
Abdushukurov Baxtiyor	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
Rahimi Farhad	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışları Üzerine	611
Jafarzade Vahide	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
Muhammadiyeva Dilafro‘z	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
Bo‘ronov Anvar	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
Xo‘janiyazova Shahnoza	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
Xolmurodova Mushtariy	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
Mirzayeva Ulker	Yunan mənbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
Babazade Rahshane	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
Yodgorov Hamid	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
O‘razova Iqbol	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obyekti sifatida	701
Azizzade Turkan	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqinda	705
Saygin Muhterem	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711

	Görge Bay)	
Hamishog‘lu Meryem	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk’ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
Bakirov Qudratillo	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
Sattorova Shahnoza	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
Maqsudova Feruza	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obyekti sifatida	745
Azizova Nilufar	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
O‘tkirbek Muhammad Sobir	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
Siddiqova Naimaxon	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
Qasimova Sema	“Kitabi-Dədə Qorqud” mətnlərində qadin-kişi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik təhlili	766
Turdiyeva Roza	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774